

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

**KORPORATIV BOSHQARUVNI NAZARIY JIHATLARI VA O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Joldasbaeva Uldaulet Jaqsiyab qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti, «Ekonometrika»

yo'nalishi 2 kurs talabasi

***Annotatsiya.** Maqolada jahonda va O'zbekistonda korporativ boshqaruvni nazariy jihatlari o'rganish va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar.** Korporatsiya, korporativ boshqaruv, korporativ tizimlar, mulkdorlar, strategik boshqarish.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются теоретические аспекты корпоративного управления в мире и в Узбекистане и его особенности.*

***Ключевые слова.** Корпорация, корпоративное управление, корпоративные структуры, собственники, стратегический менеджмент.*

***Annotation.** The state examines the theoretical aspects of corporate governance in the world and in Uzbekistan and its features.*

***Keywords.** Corporation, corporate governance, corporate structure, ownership, strategic management.*

Jahonda globallashuv va raqobat jarayonlarining keskinlashuvi sharoitida korxonalarini boshqarishda strategiyalarni tanlash, korporativ boshqaruv tamoyillarini kompleks tadqiq etishning ahamiyati oshib bormoqda. "Oxirgi yillarda global bozor kapitallashuvining 95 foizi korporativ boshqaruv asosidagi 54 ta yirik korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan. Jumladan, mazkur korxonalarda davlat ulushi 20 foiz bo'lib, ularning bozor kapitallashuvidagi ulushi 13 foizni tashkil etgan. Korporativ boshqaruv asosida faoliyat yurituvchi xususiy korxonalarining ulushi 41 foizga teng bo'lgan". «Korporatsiya daromadlari AQShning YAIM tarkibida 2182 mlrd. AQSH dollar, Xitoy YAIM tarkibida 1192 mlrd. AQSH dollar, Saudiya Arabistoni esa YAIM tarkibida 356 mlrd. AQSH dollarni tashkil etadi». Shuning uchun jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda korporativ tuzilmalar nisbatan ustuvorlikka ega bo'lib, korporatsiyalardagi boshqaruv uslubiyoitini takomillashtirishni talab etadi.

Jahonda globallashuv sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish sohasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Korporatsiya ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlari uyg'unligini

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

kompleks baholash, boshqaruv faoliyatiga xalqaro standartlarni tatbiq etish uchun korporativ boshqaruv mexanizmining zamonaviy amaliyotini joriy etish, to'qimachilik sanoati taraqqiyotini innovatsion klasterlar orqali rag'batlantirish, korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga raqamli texnologiyalarni qo'llash asosidagi o'zgarishlarga korxonalarining moslashuvchanligini ta'minlash, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishni takomillashtirish kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistoda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash hamda barqaror rivojlantirishga qaratilgan islohotlar tarkibida to'qimachilik korxonalarida korporativ boshqaruvni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish» vazifalardan belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish, korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish kabi muammolarning hal etilishini taqozo etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida kechayotgan chuqur islohotlar umumdavlat miqyosida global siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy qayta qurish jarayonini anglatibgina qolmasdan, balki har bir korxonada doirasida ham ichki boshqaruv tizimlarining tubdan yangilanishini taqozo etmoqda.

Ma'lumki, iqtisodiyotda turli boshqaruv shakllarga ega bo'lgan tadbirkorlik tashkilotlari yonma yon amal qilib keladi. Shular orasida korporativ shaklda boshqariluvchi tuzilmalarning boshqaruv tizimi ancha murakkab va ko'proq diqqatga sazovordir. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, korporativ boshqaruv tuzilmalarining samarali faoliyat yuritishi, ular aksiyadorlarining manfaatlari to'la qonli bo'lishi, investision jozibadorligi, moliyaviy inqirozga uchramasligi ko'p jihatdan korxonada amal qilayotgan korporativ boshqaruv tizimiga bog'liq. Shuning uchun ham iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish hamda ushbu tizimni takomillashtirish yo'llarini ilmiy tadqiq etish eng muhim vazifalardan biri sanaladi.

Korporativ boshqaruv amaliyotini yaxshilash O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish jarayonining bir qismi bo'lib, u xususiy mulkni himoyalash, aksiyadorlar

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

manfaatlari va xuquqlarini ta'minlash, mamlakat iqtisodiy alohida o'rin tutuvchi investision jozibador, raqobatbardosh milliy korporatsiyalarni shakllantirish uchun shart sharoitlarni yaratish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda "korporatsiya" tushunchasi tarqalgan atamalardan bo'lib, iqtisodiy jarayonlarda ham keng ko'lamda joriy etilmoqda. "Korporativ boshqaruv"ga oid ilmiy-nazariy yondashuvlarning shakllanishi korporatsiyalarning rivojlanib borishi bilan birga sodir bo'lgan. Korporativ boshqaruv nazariyasida bir qancha yondashuvlar ajratiladi: birinchi tomondan, korporativ boshqaruv nazariyasi iqtisodiy nazariyalar evolyutsiyasi bo'ylab rivojlanib borsa, ikkinchi tomondan, korporativ boshqaruv nazariyalarining evolyutsiyasi korporativ munosabatlarning asosiy ishtirokchilari, ya'ni aksiyador va menejerlar o'rtasida yuzaga keladigan muammolarni yechishga doir konsepsiyalar rivojlanishi bilan tenglashtirilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda «Korporatsiya» so'zi (lot. corporatio) birlashuv, jamiyat, ittifoq ma'nosini anglatadi. Garchi korporatsiyalar dastlab o'rta asrlarda vujudga kelgan bo'lsada, hozirgi ma'noda bu tushuncha, bozor iqtisodiyoti sharoitida keng miqyosli tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni tashkil qilishning optimal shaklini anglatadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, korporatsiyalarning biron-bir davlat iqtisodiyotidagi roli ilmiy adabiyotlarda bir xil baholanmaydi. Ayrim tadqiqotchilar korporatsiyalarni iqtisodiy rivojlanish proporsiyalari va asosiy yo'nalishlarini belgilab beradigan iqtisodiyotning asosi sifatida ko'rib chiqadilar.

Korporativ boshqaruv atamasining o'zi tarixan 1970 yillarning o'rtalarida AQSHda yuzaga kelgan. Keyinchalik, ushbu atama Yevropada keng tarqalib, unda korporativ menejment, korporativ huquq va korporativ tuzilmalarni yaratish sohalarida tadqiqotlar o'tkazilishi davom ettirilgan. Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, korporativ boshqaruv atamasi birinchi marta R.Ills tomonidan korporativ tuzilmasi va faoliyati mohiyatini ochib berish uchun qo'llanilgan.

Korporativ munosabatlar tizimi korporativ va xususiy mulkni boshqarishni qo'llash jarayoni sifatida amerikalik huquqshunos olim A.Berli va iqtisodchi G.Minzning klassik ishlarida o'rganilgan. Ularning ishlarida korporativ boshqaruv atamasi tilga olinmagan bo'lsada, ular korporativ boshqaruvni ishonib topshiruvchilar – principals (autsayderlar, investorlar) va vakillar – agents (insayderlar, boshqaruvchilar) o'rtasidagi munosabatlarini o'rganishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan T.K.Madiyorov "korporativ boshqaruv ishlab chiqarishni rivojlantirish faoliyati, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

resurslaridan oqilona foydalanishni kapital mablagʻlarning yangi texnika va texnologiyalarni koʻplab jalb etilishi bilan uygʻunlikda olib boriladi”, deb talqin qilgan boʻlsa, Sh.N.Zaynutdinov va D.N.Raximovalar “korporativ boshqaruv – manfaatdor shaxslarning daromad olish maqsadida birgalikdagi harakatlaridir”, degan taʼrifni keltirishgan. Yana bir iqtisodchi olim D.X.Suyunovning taʼrifiga koʻra: “korporativ boshqaruv - korporativ mulk shakliga kiruvchi subʼyektlarning huquqlarini himoya qiluvchi amaldagi meʼyorlar hamda boshqaruvning maʼlum bir tamoyillari asosida korxonaga maqsadiga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlar majmuidir”-deb taʼrif bergan.

Shu oʻrinda korporativ korxonaga tushunchasining oʻziga xos mazmun kasb etishini taʼkidlash maqsadga muvofiqdir. Manbalarga koʻra, korporativ korxonaga - bu tashkiliy tuzilishidan qatʼiy nazar oʻzining taʼsischilari, ishtirokchilarining aʼziligiga asoslangan korxonaga hisoblanadi. Fikrimizcha, bunday taʼrif mazkur tushunchaning umumiy jihatlarini namoyon etsada, uning toʻliq maʼnosini ifodalay olmaydi. Korporativ korxonaning taʼrifini quyidagicha bayon etish maqsadga muvofiqdir: korporativ korxonaga – bu mulkka egalik qilish va uni boshqarish jihatlari ajralgan holda iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etishda ishtirok etuvchi tomonlar manfaatlarini uygʻunlashuvini taʼminlovchi xoʻjalik yurituvchi subʼyektdir.

Korporativ boshqaruv tushunchasining mohiyatini ochib berishda yuqorida koʻrib oʻtilganidek, turlicha talqinlarning mavjudligiga qaramay, quyidagi taʼriflar amaliyotda eng koʻp ishlatib kelinmoqda.

Masalan, I.A.Xrabrovning fikricha, korporativ boshqaruv bu- biznesni tashkiliy-huquqiy rasmiylashtirish, tashkiliy tuzilmani optimallashtirish, kompaniyaga maqsadlariga mos keluvchi tashkilot ichidagi tuzilmalarning oʻzaro munosabatlarini oʻrnatishdir.

S.Karnauxov esa korporativ boshqaruvga sinergetik samaralarning maʼlum bir toʻplamini boshqarish deya taʼrif beradi. Ammo bizning fikrimizcha, ushbu taʼriflar biznesning korporativ shakllaridan foydalanish natijalariga taalluqli boʻlib, bevosita muammoning mohiyatini toʻliq ochib bera olmaydi.

Keyingi yondashuv bugungi kunda koʻproq ishlatib kelinayotgan yondashuvlardan biri boʻlib, biznesning korporativ shakllaridan foydalanish oqibatida mulkdorlar va boshqaruvchilar institutlarining alohida ajralishiga asoslangan yondashuvdir. Bunda korporativ munosabatlar ishtirokchilarining

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

manfaatlarini menejerlarning samarasiz faoliyatidan himoyalash masalalariga asosiy e'tibor qaratiladi, ya'ni mulk egalari-aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish kiradi. Boshqa yondashuvlarda, korporativ boshqaruvga aksiyadorlar bilan birgalikda moliyaviy investorlar guruhini tashkil etuvchi kreditorlar manfaatlarini ham himoyalash deb ta'rif berilgan.

Ma'lumki, aksiyadorlar korporativ boshqaruvni vujudga kelishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy baza manbalari hisoblanadi. Korporativ boshqaruvdagi ularning manfaatlari dividendlar yoki korporatsiyada o'z ulushlarining qiymatini oshirish hisobiga ma'lum miqdordagi foyda olishdan iboratdir. Kreditorlar ham moliyaviy investorlar hisoblanib, korporatsiya qiymati va foydaliligini oshirishdan manfaatdor bo'lgan aksiyadorlardan farqli o'laroq, kafolatlangan daromad olish uchun korporatsiyadagi moliyaviy xolatning barqarorligidan manfaatdordir.

Shuningdek, korporatsiya faoliyatidan nafaqat moliyaviy, balki nomoliyaviy investorlar ham manfaatdordirlar. Ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan quyidagilarga nomoliyaviy investorlar sifatida qaraladi:

- korporatsiya xodimlari;
- korporatsiyaning hamkorlari;
- jamiyat (davlat, iste'molchilar va boshqalar).

Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, korporativ boshqaruv mohiyatini kengroq ochib beradigan ta'rif sifatida korporativ boshqaruv – bu ham moliyaviy (aksiyadorlar va kreditorlar) ham nomoliyaviy investorlar (ishlovchilar, davlat, hamkorlar va boshqalar) manfaatlarini himoyalash hamda boshqaruvning ma'lum bir tamoyillar asosida korporatsiya maqsadiga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlar majmuidir, deb ta'rif berishni tavsiya etamiz.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda korporatsiya va uning hamkorlari o'rtasidagi bunday munosabatlarni korporatsiyaning tashqi aloqalari emas, balki ichki aloqalari sifatida qarash maqsadga muvofiqdir va mahsulot yetkazib beruvchining manfaatlari korporatsiyaning alohida ichki tuzilmasi manfaati sifatida ifodalanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda korporativ tizimlar rivojlanish jarayonining murakkab, oddiy birlashmalardan aksiyadorlik jamiyatlari shakligacha bo'lgan bosqichlarini boshdan kechirgan. Ushbu tuzilmalarning mirakkablashuvi va yiriklashuvi natijasida ularning huquqiy maqomini aniqlashtirish, ichki va tashqi munosabatlarni tartibga soluvchi me'yor va

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 7, 31 Июль

qoidalarning shakllanishi talab etiladi.

Фойдаланилган адабиётлар ro‘yxati

1. Калмуратов Б.С. Стратегия развития инновационного управления промышленного комплекса Республики Каракалпакстан. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science* Philadelphia, USA Issue 01, volume 91 published January 31, 2021. 379-387 стр
2. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович Приоритеты кластерного подхода в инновационной развитой строительной промышленности // Бюллетень науки и практики. 2020. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prioritety-klasterного-podhoda-v-innovatsionnoy-razvitoy-stroitelnoy-promyshlennosti>
3. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович, Бектурдиев Максет Бекбергенович ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ В КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ИНДУСТРИИ // Бюллетень науки и практики. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-innovatsionnoy-strategii-razvitiya-v-konkurentnoy-srede-stroitelnoy-industrii>